





143. Hajmli shakllar

Yondosh mavzu:
suv muolajasi.

Hajm, sirt.




1. Agar suv havzasining tubi quyidagicha ko'rinishda bo'lsa, u qanday shaklga ega bo'lishi mumkin:



Bu shakllar qanday ataladi?


2. Daftaringizga usbu shaklning uchta turli yoqlarini chizing. Qanday shakllar hosil bo'ldi?





3. Kuboid bilan kub nimasi bilan o'xshash va nimasi bilan farq qiladi?

Kuboid



Kub



Yoqlar – bu hajmli shakldagi bir-biri bilan o'zaro bog'langan yassi shakllar. **Qirralar** – bu hajmli shaklda yoqlarni tutashtiruvchi kesmalar.



4. Kuboidning yoqlari nimaga o'xshaydi? Ular nechta? Kubda-chi? Ularda qirralar nechta? Bu shakllarning teng yoqlarini va teng qirralarini ko'rsating.



5. Kuboid birinchi yog'ining yuzi 24 kvadrat detsimetrga teng, ikkinchi yog'i birinchi yog'idan 2 marta katta, uchinchi yog'i ikkinchi yog'idan 30 dm² kichik. Uchinchi yog'ining yuzini toping.



6. To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yi 5 santimetrga, eni 4 santimetrga, balandligi esa 2 santimetrga teng. Har bir yoqning yuzini va hamma yoqlar yuzlarining yig'indisini (to'la sirtining yuzini) toping.



7. Hisoblang.

$$48 : 8 \cdot 14$$

$$45 : 9 \cdot 16$$

$$42 : 6 \cdot 15$$

$$72 : 8 \cdot 16$$

$$49 : 7 \cdot 15$$

$$36 : 6 \cdot 17$$

$$36 : 9 \cdot 18$$

$$56 : 8 \cdot 12$$

$$42 : 7 \cdot 13$$

$$81 : 9 \cdot 11$$

$$28 : 7 \cdot 19$$

$$63 : 9 \cdot 15$$